

ASPEKTUAL KONSEPSIYANING RIVOJLANISH TARIXI

Muratova Manzura Islamovna,

QarshiDU katta o'qituvchisi,

+998 95 480 27 27

muratovamanzura27@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazidagi masalalardan biri aspektual konsepsiya, uning sentaktik fremlari va kognitiv modellashuvi tadqiqot obekti sifatida olingan. Vaholanki, kognitiv tilshunoslikning asosiy birligi konsept sanaladi va lingvistik hodisaning semantik jihatlarini to'la o'rganmay turib, uning mohiyatini shuningdek, tabiatini to'la ochib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: konsepsiya, sintaktik freym, kognitiv model, mental tizim, neytral munosabatlar, natijaviylik konsepsiyasi, iterativlik konsepsiyasi.

Kognitiv tilshunoslikda konsepsiya, sintaktik freym, kognitiv model kabi tushunchalarga murojaat qilish nafaqat aspektuallik turlari va vositalari haqida to'liq ma'lumot olishga, balki u yoki bu konstruksiya nima uchun ishlatilishiga yordam beradi. Konsepsiya atamasiga kognitiv atamalar lo'g'atida quyidagicha ta'rif beriladi: "konsepsiya - bu bizning ongimizning aqliy yoki psixologik resurslari birliklarini va inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasini tushuntirishga xizmat qiluvchi atama".

Konsepsiya atamasni ilk bor S.A.Askoldov qo'llagan bo'lib, unga "...bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar xaqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir", deb ta'rif beradi. Tilshunoslikda esa konsepsiya atamasini birinchilardan bo'lib, R. Jekendofning (Rey Jekendoff) "What is a concept, that a perso may prasp it" (1989) asarida, J. Lakoffning (George Lakoff) "Mataphors we live by", (1980) asarida, J. Miller, J. Bruner, R. Langaker va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

Xozirgi kunga kelib, konsepsiyaga bag'ishlangan ko'pgina nazariy va amaliy ishlar mavjud. Jumladan, YE. S. Kubryakova konsepsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "konsepsiya - bu bizning ongimizda mavjud bo'lgan ma'lum bir ma'no, g'oya demakdir. Asosiysi, bunday g'oya anglash jarayonida operativ birlik sifatida mavjud bo'ladi va butunlay mustaqil va boshqalardan aniq ajralib turadi".

Konsepsiya o'zbek tilshunoslari N. Maxmudov, Sh. S. Safarov, A. YE. Mamatov, M. B. Mamatov, H. Q. Yusupov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, Sh. S. Safarov uni "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi" deb ta'riflaydi. H. Q. Yusupov "tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir", deydi. M. B. Ergashev esa uni "bir vaqtning o'zida ham psixologik, ham kognitiv - semantik va lingvokognitiv jihatlarni namoyon etuvchi ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tizim" sifatida ta'riflaydi. (Ergashev, 2024)

Aspektual konsepsiyalar tuzilishi haqida YE. S. Kubryakova "Tilda konseptual tizimlarni muqobil vositalar bilan amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati bir xil mazmunni tilda yetkazish mumkinligidir", degan juda qiziqarli fikrni bildirgan. Bundan tashqari, ma'lum bir tushuncha inson tafakkuri uchun qanchalik ahamiyatli bo'lsa, unda lingvistik vositalar va lingvistik shakllar tizimi shunchalik murakkabroq ifodalash mumkin". (Kubryakova, 2004).

T. V. Beloshapkova aspektual konsepsiyani bir qadar chuqurroq o'rganib, uni to'qqiz konsepsiyalar majmuidan: "namoyon bo'lish darajasi", "boshlanish", "davom etish", "yakunlash", "birlik", "davomiylik", "natijaviylik", "takroriylik" va "meyor"dan iboratdir", (stepen proyavleniya, nachalo, prodoljenije, konets, yedinichnost, dlitelnost, rezultativnost, povtoryayemost, sootnosheniye s normoy) deydi. (Beloshapkova, 2007). Olima bu

konsepsiyalarni ikki elementar va elementar bo'lmagan guruhga ajratadi. Elementar guruhga "boshlanish", "davom etish", "yakunlash", "birlik" va "davomiylik"ni hamda elementar bo'lmagan guruhga "namoyon bo'lish darajasi", "natijaviylik", "takroriylik", "meyor bilan munosabat"ni kiritadi. Shuningdek u, strukturaviylik nuqtai nazaridan konsepsiyani ikki guruhga bo'ladi: oddiy (so'z bilan ifodalangan) va murakkab (so'z, iboralar, jumlar va matnlarda taqdim etiladigan).

Quyida biz T.V.Beloshapkova nazriyasiga asosan to'qqiz turdagi konsepsiyani ingliz va o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollarda ko'rib chiqamiz.

Boshlanish konsepsiyasi – ish – harakatning boshlanishini anglatib, bir so'z, sodda gap bilan ifodalanadi. Ingliz tilida start, begin, commence fe'llari bilan ifodalanadi: *Several times Thornton started to speak...* (J.London, p.52); *Men gasped and began to breathe again*, (J.London, p.66); – Ketdik. (O'.Hoshimov, 7 - b.); *Mashina bir silkindi-yu, shiddat bilan yurib ketdi*. (O'.Hoshimov, 7 - b.);

Davom etish konsepsiyasi sodda gapda ifodalanadi va ish – harakat ma'lum bir vaqt oralig'ida davom etadi. Ingliz tilida continue, go on, endure, lengthen fe'llari shuningdek davomli zamon fe'l konstruksiyasi (to be + verb + ing) bilan ifodalanadi: *For half a day this continued*. (J.London, p.75); *He was whining softly* (J.London, p.80); o'zbek tilida boshladik, ketdik, v.h.k. fe'llar va gapning kesimiga – yapti, qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi: – *Menga qarang, qayoqqa ketyapmiz o'zi?* (O'.Hoshimov, 7 - b.).

Birlik konsepsiyasi ish-harakatning namoyon bo'lishining yagonaligini ko'rsatish orqali uning miqdoriy xususiyatini bildiradi. U so'z va sodda gap, matn orqali uzatiladi: *"Can you lend me a thousand?" he asked, almost in a whisper. "Sure," answered O'Brien...* (J.London, p.63); *Murodjon qolipni yerga uloqtirgancha shu tomonga yugurdi. O'n qadamcha yugurgandan keyin qattiq hatladi. Nasiba o'rtada ariq borligini endi idrok etdi*. (O'.Hoshimov, 8 - b.). Ushbu matnlarda ish – harakat bir marta sodir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Davomiylik konsepsiyasi harakat yoki holatning miqdoriy xarakteristikasini uning vaqtinchalik belgilanish o'lchovini ko'rsatish orqali bildiradi. U har - xil qisqa lahzali yoki ancha uzoq vaqt deb hisoblash mumkin. *The crowd was watching curiously. The affair was growing mysterious. It seemed like a conjuration*. (J.London, p.65); *Nasiba hamon haykaldek qotib turar, ro'parasidagi mana shu odam, loyga belangan mana shu kishi eri ekaniga – Murodjon akasi ekaniga hecham ishongisi kelmasdi*. (O'.Hoshimov, 8 - b.).

Natijaviylik konsepsiyasi harakatning sifat va miqdoriy xususiyatlarini bildiradi. Boshqa konsepsiyalardan farqli o'laroq, u ikki turdagi - to'liq va to'liq bo'lmagan natijaga (maqsadga) erishish shakldan iborat. Ingliz tilida natijaviylik tugallangan (perfect tense) zamon bilan ifodalaniladi. *He had earned it, and he would not be content with less*. (J.London, p.34); *From his St. Bernard father he had inherited size and weight, but it was his shepherd mother who had given shape to that size and weight*. (J.London, p.73). O'zbek tilida esa ega bo'lmoq, muvaffaq bo'lmoq, qozonmoq, erishmoq, yetishmoq v.h.k. fe'llar bilan ifodalaniladi: Ular ancha narsaga ega bo'lishdi. To'y qilishdi, ota-onasi xohlaganicha, Nasiba istagancha orzu-havas ko'rishdi. (O'.Hoshimov, 10 - b.).

Meyor bilan uyushganlik konsepsiyasi harakatning miqdoriy xarakteristikasini bildiradi. U ikki "meyordan ko'proq"/"meyordan kamroq" variantda taqdim etiladi: Ingliz tilida many, much, more, the most, less, the least ravishlari bilan qo'llaniladi: *But it was Dave who suffered most of all*. (J.London, p.34); *He saw the movement, or heard sound, and responded in less time than another dog required...* (J.London, p.73); O'zbek tilida unchalik, bir oz, bir qadar, ozroq, ancha – muncha, anchagina, v.h.k. daraja miqdor ravishlari bilan ifodalanadi: *Avvalo, Murodjonning otasi yo'qligi qiz tomonga unchalik ma'qul kelmadi*. (O'.Hoshimov, 3 - b.); *Nasiba juda hijolatli ahvolda qoldi*. (O'.Hoshimov, 10 - b.).

Takroriylik (iterativ) konsepsiyasi harakatning miqdoriy xususiyatini bildiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, miqdoriy o'zgarishlar ma'lum bir darajani, baholashni talab qiladi, shuning uchun markazdagi meyor tushunchasi bilan "ko'p-kam" baholash shkalasidan tashqari, vaziyatni hamda takrorlanishni hisobga olgan holda miqdoriy aniqlik ham kerak bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, ba'zi aspektual konsepsiyalar insoniy muloqot uchun muhimroq bo'lsa, boshqalari esa kamroq ahamiyatga ega. Shunday ekan, namoyon bo'lish darajasi (harakat, belgi, holat) tushunchasi miqdoriy o'zgarishlarni bildiradi. Tildagi miqdoriy o'zgarishlar qandaydir darajani talab qilganligi sababli, baholash markazidagi meyor tushunchasi bilan "ko'p - kam" baholash shkalasi paydo bo'ladi. Shuning uchun, ko'rib chiqilayotgan konsepsiya elementar emas - bu "ko'p - kam" reyting shkalasida baholanadigan namoyonlik darajasi hisoblanadi. (Beloshapkova, 2007)

Semantika nuqtai nazaridan, aspektuallik kategoriyasi ikki guruh konsepsiyalar miqdor va sifat kabi ikki turdagi xususiyatlar orqali birlashtiriladi. Miqdoriy xususiyatlarni bildiruvchi konsepsiyalar - namoyon bo'lish darajasi, birlik, davomiylik, natijaviylik (variant to'liq bo'lmagan natija), takroriylik meyor bilan bog'liqlik bo'ladi. Sifat xususiyatlarni bildiruvchi konsepsiyalar boshlanish, davom etish, yakunlash, natijaviylik (natijaga/maqsadga erishish varianti) sanaladi. Konsepsiyalarning ikkala guruhi ham miqdorning sifatga aylanishiga abadiy intilishi bilan birlashadi; miqdor va sifat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Aytish kerak ki, aspektual konsepsiyalarni semantik jihatdan sodda, ya'ni inson muloqoti va tafakkuri asosida yotgan leksik universallar to'plami deb tasniflash mumkin. (Vejbetskaya, 1996)

Shunday qilib, aytish mumkinki, namoyon bo'lish darajasi, boshlanish, yakunlash, birlik, davomiylik, meyor bilan munosabat konsepsiyalari murakkab konsepsiya sanaladi. Natijaviylik va takroriylik konsepsiyalari murakkab shakllanishlar bo'lib, variantlardan biri murakkab, ikkinchisi esa oddiy bo'ladi. Murakkab variantlar quyidagilardir: to'liq bo'lmagan natija (natijaviylik konsepsiyasi), takroriylik (iterativlik konsepsiyasi). Oddiy konsepsiya - davomiylikdir. Shuningdek, aspektuallik kategoriyasining konseptual tuzilishi tilning konseptual tizimining asosiy darajasiga tegishli ekanligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev M.B. International scientific and practical conference "Methodology of teaching foreign languages. Traditions. Problems and their solutions" March 15. 2024
2. Белошапкова Т. В. Когнитивно-дискурсивное описание категории аспектуальности в современном русском языке. - М. : УРСС, 2007. - 328 с. - библиогр. : С. 297 – 313.
3. Вежбитская А. Язык. Культура. Познание / А. Вежбитская. М., 1996.
4. Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки / Е. С. Кубрякова // Известия АН. 2004. т. 63, М 3. с.
5. Кубрякова Е. С. Язык и знание / Е. С. Кубрякова. М., 2004. С. 316
6. Safarov. Sh.S.Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, Sangzor – 2006y. 208 – b.
7. Шомуродова, Ш. Ж., Назарова, Н. Б., & Акрамова, К. (2020). Barriers of teaching foreign languages in junior classes. Евразийский научный журнал, (6), 63-65.
8. JAHONOVNA, S. S., FURQATOVNA, S. Y., & QIZI, X. Z. X. Make Use of Interactive Forms and Methods in Teaching a Foreign Language. JournalNX, 6(11), 260-263.
9. Шомуродова, Ш. (2018). Роль инновационных технологий в широкомасштабной реформации образовательного процесса. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(2 (67)), 30-33.
10. Jahonovna, S. S. (2022). FEATURES OF SEMANTIC AND STYLISTIC TRANSFORMATIONS OF STABLE WORD COMBINATIONS. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
11. Jahonovna, S. S., & Avazbekovna, I. M. (2024). The importance of terminology in the study of specialized language. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 279-282.
12. Мирсанов, Г. К. (2009). Инглиз ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг акционал ва аспектуал хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф.